

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.


Hukumatning bu borada so'nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar 2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasini (matnda TSA) 269,2 mln. AQSh dollariga yetishini va 2019-yilning shu davriga nisbatan 1,2 mln. AQSh dollariga yoki 0,4 % ga kamaydi.

**SIRDARYO
VILOYATINING
TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(mln. AQSh
dollari)**



TSAda eksport hajmi 66,7 mln. AQSh dollariga (pilyus 6,2 %) va import hajmi 202,5 mln. AQSh dollariga (minus 2,5 %) yetdi. Hisobot davrida 5,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO
AYLNMSI
DINAMIKASI
(mln. AQSh
dollari)



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Sirdaryo viloyati jahonning 50 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Qozog'istonda (24,5 %), Rossiya Federatsiyasida (23,7 %), Xitoy Xalq Respublikasida (15,6 %), Afg'oniston (7,8 %) va Turkmanistonda (4,6 %) qayd etilgan.

**SIRDARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar-iyun,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulush
Qozog'iston	65,9	9,8	56,1	24,5
Rossiya Federatsiyasi	63,8	12,6	51,2	23,7
Xitoy Xalq Respublikasi	42,0	9,1	32,9	15,6
Turkmaniston	12,5	0,4	12,1	4,6
Afg'oniston	21,1	21,1	0,002	7,8
Avstriya	8,7	-	8,7	3,2
Bangladesh	6,6	5,9	0,7	2,4
Germaniya	7,9	0,02	7,9	2,9
Turkiya	7,4	0,9	6,5	2,8
Tojikiston	6,0	2,8	3,2	2,2

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qozog'iston (65,9 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (63,8 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (42,0 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (12,5 mln. AQSh dollari) va Afg'oniston (21,1 mln. AQSh dollari). Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

SIRDARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar-iyun,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Qozog'iston	14,1	63,6	65,9
eksport	11,2	19,3	9,8
import	2,9	44,3	56,1
saldo	8,3	-25,0	-46,3
Rossiya Federatsiyasi	23,0	47,4	63,8
eksport	15,1	9,2	12,6
import	7,9	38,2	51,2
saldo	7,2	-29,0	-38,6
Xitoy Xalq Respublikasi	50,4	82,9	42,0
eksport	19,4	15,3	9,1
import	31,0	67,6	32,9
saldo	-11,6	-52,3	-23,8
Turkmaniston	0,05	7,2	12,5
eksport	0,05	0,2	0,4
import	0,0	7,0	12,1
saldo	0,05	-6,8	-11,7
Afg'oniston	1,5	2,5	21,1
eksport	1,4	2,5	21,0
import	0,1	0,0	0,1
saldo	1,3	2,5	20,9
Avstriya	1,1	7,0	8,7
eksport	0,0	0,0	-
import	1,1	7,0	8,7
saldo	-1,1	-7,0	-8,7
Bangladesh	-	0,9	6,5
eksport	-	0,9	5,9
import	-	0,0	0,6
saldo	-	0,9	5,3
Germaniya	2,3	1,9	7,9

SIRDARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar-iyun,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)


Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
eksport	0,0	0,0	0,02
import	2,3	1,9	7,9
saldo	-2,3	-1,9	-7,88
Turkiya	9,6	11,3	7,4
eksport	4,3	2,5	0,9
import	5,3	8,8	6,5
saldo	-1,0	-6,3	-5,6
Tojikiston	1,1	2,0	6,0
eksport	1,0	1,1	2,8
import	0,1	0,9	3,2
saldo	0,9	0,2	-0,4
Koreya Respublikasi	5,8	7,6	4,7
eksport	0,0	0,0	0,004
import	5,8	7,6	4,69
saldo	-5,8	-7,6	-4,686
Qirg'izston	1,1	1,3	2,2
eksport	0,6	0,5	0,5
import	0,5	0,8	1,7
saldo	0,1	-0,3	-1,2
Litva	0,6	2,3	3,1
eksport	0,0	0,0	-
import	0,6	2,3	3,1
saldo	-0,6	-2,3	-3,1
Ukraina	1,1	4,9	4,8
eksport	0,98	1,7	1,5
import	0,12	3,2	3,3
saldo	0,86	-1,5	-1,8
Ekvador	-	-	0,9
eksport	-	-	-

**SIRDARYO
VILOYATI
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
iyun, mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
import	-	-	0,9
saldo	-	-	-0,9
Fransiya	0,13	0,1	0,8
eksport	0,0	0,0	-
import	0,13	0,1	0,8
saldo	-0,13	-0,1	-0,8
Latviya	0,14	4,9	0,8
eksport	0,05	1,8	0,01
import	0,09	3,1	0,69
saldo	-0,04	-1,3	-0,68
Pokiston	0,32	0,2	0,7
eksport	0,14	0,2	0,7
import	0,18	0,0	0,006
saldo	-0,04	0,2	0,694
Eron Islom Respublikasi	6,8	4,3	0,664
eksport	5,4	3,7	0,075
import	1,4	0,6	0,588
saldo	4,0	3,1	-0,513
Vetnam	0,54	0,3	0,579
eksport	0,54	0,2	0,268
import	0,0	0,1	0,311
saldo	0,54	0,1	-0,043

Sirdaryo viloyatining TSA dinamikasi tahlili 2020-yil yanvar-iyun oylari 2019-yilga nisbatan eksport hajmlarini pasayishni ko'rsatdi, yani 2019-yilga nisbatan TSA 0,4 foizga kamaydi. Shundan eksport (6,2 % ga) ko'payib, import esa (2,5 % ga) pasaydi.

**SIRDARYO
VILOYATI
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI**
(yanvar-iyun,
mln. AQSh
dollari)



TSAning ikkidan bir qismini MDH davlatlari tashkil etib, so‘nggi yillarga nisbatan asta-sekin kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida boshqa xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarning kengayayotganidan dalolat bermoqda. Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 57,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 21,5 % ga ko‘paydi.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-iyun ming. AQSh dollar)



SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI yanvar-iyun 2020-yil

Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2020-yilda MDH davlatlariga nisbatan pasaydi va jami TSAdagi ulushi 42,1 % ni tashkil etdi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlarni nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar eksporterlar sonini eksport tarkibida tovarlar ulushi (69,6 %) ni tashkil etib, ular asosan, to'qimachilik buyumlari (11,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (52,2 %) hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari (3,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, foyizda		
		Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (yanvar-iyun, 2020-yil mln. AQSH. doll.)	Jami eksport	66,7	27,8	38,9	100,0	100,0	100,0
	shu jumladan:						
	Paxta tolasi	7,8	0,6	7,2	11,7	2,2	18,5
	Oziq-ovqat mahsulotlari	34,8	12,1	22,7	52,3	43,5	58,5
	Kimyo mahsulotlari va buyumlari	2,5	2,4	0,1	3,7	8,6	-
	Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-	-	-	-
	Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-	-	-	-
	Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	1,2	1,2	-	1,8	4,3	-
	Xizmatlar	0,7	0,4	0,3	1,0	1,4	0,8
	Boshqalar	19,7	11,1	8,6	29,5	40,0	22,2

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARG
A TOVAR
VA
XIZMATLAR
EKSPORTININ
G O`SISH
SUR`ATLARI
(2020-yil
yanvar-iyun)**

Tarkibi	O'tgan yilga nisbatan, foyizda		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	106,2	84,2	130,7
shu jumladan:			
Paxta tolasi	83,6	-	77,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	161,2	77,1	382,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	176,0	171,5	554,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	79,8	79,8	-
Xizmatlar	75,1	70,8	83,0
Boshqalar	70,1	79,6	60,8


2020-yil yanvar-iyun oylari eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo mahsulotlari va buyumlarida o'sish kuzatildi.

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI**
(yanvar-iyun, %
da)

Tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Paxta tolasi	16,1	14,8	11,7
Oziq-ovqat mahsulotlari	23,1	34,4	52,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	5,0	2,3	3,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	0,2	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	3,7	2,5	1,9
Xizmatlar	2,7	1,5	1,0
Boshqalar	49,2	44,5	29,3

So‘nggi uch yilda boshqa mamlakatlariga eksport hajmi pasaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yildagi 47,4 % dan 2020-yildagi 58,3 % ga tushdi. Mos ravishda MDH mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 41,7 % ga o‘sdi.


**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(2020-yil yanvar-
iyun, ming. AQSh
dollari,)**



2019-yil bilan taqqoslaganda, tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (31,6 %), Rossiya Federatsiyasi (18,9 %), Bangladesh (8,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,6 %), Qozog'iston (14,7 %), Tojikiston (4,2 %), Pokiston (1,0 %) va Ukraina (2,2 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 50 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar-iyun aylari)



SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-iyun)

SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARIGA AMALGA OSHIRILGAN EKSPORT HAJMI VA UMUMIY HAJMGA NISBATAN, % da (yanvar-iyun)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		Umumiy hajmga nisbatan, % da		O'рни	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Afg'oniston	2,5	21,1	4,0	31,6	5	1
Rossiya Federatsiyasi	9,3	12,6	14,7	18,9	3	2
Bangladesh	0,947	5,9	1,5	8,8	10	5
Xitoy Xalq Respublikasi	15,3	9,1	24,4	13,6	2	4
Qozog'iston	19,3	9,8	30,7	14,7	1	3
Tojikiston	1,1	2,8	1,7	4,2	9	6
Pokiston	0,2	0,7	0,3	1,0	14	9
Ukraina	1,7	1,5	2,7	2,2	7	7
Turkiya	2,4	0,9	3,9	1,3	6	8
Qirg'iziston	0,5	0,5	0,7	0,8	12	10
Vetnam	0,15	0,3	0,2	0,4	16	12
Turkmaniston	0,16	0,44	0,3	0,7	15	11
Gruziya	0,944	0,0	1,5	0,0	11	13
Gollandiya	0,1	0,1	0,2	0,2	17	14
Eron Islom Respublikasi	3,7	0,1	5,9	0,1	4	15
Ozərbayjan	-	0,1	-	0,2	-	16
Belarus	1,0	0,062	1,6	0,1	8	17
Hindiston	0,1	-	0,1	-	18	18
Bolgariya	0,3	-	0,5	-	13	19
Germaniya	0,0	-	0,0	0,0	-	20

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI**
(yanvar-iyun,
ming. AQSh
dollari)



Meva va
rezavorlar

2 487,1 t.
2 316,5 ming.
AQSh. dollari



Uzum

471,9 t.
391,2 ming.
AQSh. dollari



Yeryong'oq

189,0 t.
193,7 ming.
AQSh. dollari



Sabzavotlar

39 234,8 t.
10 407,5 ming.
AQSh. dollari

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yil umumiy eksportdagi meva va sabzavotlarning ulushi 19,0 % ni tashkil etdi. Meva-sabzavot eksporti qiymatda eng ko'p Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelib (jami meva-sabzavot eksportidan 67,4 %), natural ko'rinishida esa 27,9 ming tonnani tashkil etadi.

Davlatlar	2019-yil			2020-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, foyizda	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, foyizda
Qozog'iston	22,9	12,9	65,6	27,9	5,2	67,4
Rossiya	0,5	0,2	1,5	5,4	3,6	12,9
Afg'oniston	0,4	0,6	1,1	2,1	1,1	5,1
Pokiston	0,3	0,2	0,9	0,8	0,7	2,0
Tojikiston	0,0	0,0	0,0	1,6	1,0	4,0

*-qiymat ifodasidan

SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-iyun)

Viloyatda import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan so'nggi yillarda import hajmi oshib kelayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 202,5 mln. AQSh dollari (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 97,5 %) tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va uskunalar (38,3 %), hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (25,6 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (2,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	202,5	128,1	74,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari	41,0	37,3	3,7	20,3	29,2	4,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlar	51,9	39,5	12,4	25,6	30,8	16,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	5,4	5,2	0,2	2,7	4,1	0,2
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	5,3	2,2	3,1	2,6	1,7	4,2
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	0,4	0,2	0,2	0,2	0,2	0,3
Mashina va asbob-uskunalar	77,7	32,3	45,4	38,3	25,2	61,0

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLAR
DAN
IMPORTNING
O'SISH
DINAMIKASI
(2020-yil
yanvar-iyun)**

Xizmatlar	0,0	-	0,0	-	0,0	-
Boshqalar	20,8	11,3	9,5	10,3	8,8	12,7

Importning eng katta ulushi, jumladan, mashina va asbob-uskunalar (38,3 %), shuningdek kimyo mahsulotlari (25,6 %) oziq-ovqat mahsulotlari (20,3 %), boshqalar (10,3 %). Boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (61,0 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (16,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Tarkibi	2019-yilga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	97,5	134,5	66,2
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	161,3	176,7	85,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	110,6	214,7	43,5
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	31,6	30,8	897,0
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	86,7	90,3	84,4
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	69,6	166,4	39,5
Mashina va asbob-uskunalar	85,7	113,5	73,0
Xizmatlar	152,9	-	152,9
Boshqalar	99,7	147,1	72,0


2020-yil yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan kimyo mahsulotlari va buyumlari importining ulushi 10,6 % gacha o‘sdi.

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLAR
IMPORTI
(2020-yil yanvar-
iyun, % da)**

**IMPORT
TARKIBI
DINAMIKASI**
(yanvar-iyun %
da)

Tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,5	12,3	20,3
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	25,0	22,5	25,6
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,9	8,2	2,7
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	1,6	3,0	2,6
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	0,7	0,3	0,2
Mashina va asbob-uskunalar	47,5	43,7	38,3
Xizmatlar	-	-	-
Boshqalar	15,8	10,0	10,3

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLAT-
LARDAN
TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI**
(yanvar-iyun,
ming. AQSh
dollari,
ulushi, % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini 25,3 % ulushi bilan ortda qoldirgan holda Qozog'iston umumiy import hajmida 27,7 % ulushi bilan birinchi o'rinni egalladi.

**ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARDAN
AMALGA
OSHIRILGAN
IMPORT
HAJMI VA
UMUMIY
HAJIMGA
NISBATAN, % da
(yanvar-iyun)**

Davlatlar	mln. AQSH dollari		Umumiy hajimga nisbatan, %da		oʻrni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Qozogʻiston	44,3	56,1	21,3	27,7	2	1
Rossiya Federatsiyasi	38,2	51,3	18,4	25,3	3	2
Xitoy Xalq Respublikasi	67,6	32,9	32,5	16,3	1	3
Turkmaniston	7,0	12,1	3,4	6,0	6	4
Avstriya	7,0	8,7	3,4	4,3	7	6
Germaniya	1,9	7,9	0,9	3,9	11	7
Turkiya	8,8	12,1	4,3	6,0	4	5
Koreya Respublikasi	7,6	4,7	3,7	2,3	5	8
Tojikiston	0,9	3,2	0,4	1,6	12	10
Litva	2,3	3,1	1,1	1,5	10	11
Qirgʻizston	0,8	1,8	0,4	0,8	13	12
Ekvador	-	0,8	-	0,4	-	13
Ukraina	3,2	3,3	1,5	1,6	8	9
Fransiya	0,4	0,8	0,2	0,4	15	14
Latviya	3,1	0,7	1,5	0,3	9	15
Bangladesh	-	0,7	-	0,3	19	16
Eron Islom Respublikasi	0,6	0,6	0,3	0,3	14	17
Norvegiya	0,2	0,5	0,1	0,2	16	19
Vengriya	0,2	0,6	0,1	0,3	17	18
Chexiya	-	0,3	-	0,2	18	20

Import asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar-iyun)

VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-iyun, %
da)



Umuman olganda, 2020-yil yanvar-iyun oylariga ko'ra jami 41 ta davlatlardan Sirdaryo viloyatida tovar va xizmatlar import qilingan.

Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston, Avstriya, Germaniya va Turkiya hamkor-davlatlaridan jami import hajmi 175,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa import hajmining 86,7 % ni tashkil qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 225-19-70